O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI
GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI
"GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI

MINISTRY OF MINING INDUSTRY AND GEOLOGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
UNIVERSITY OF GEOLOGICAL SCIENCES
"INSTITUTE OF HYDROGEOLOGY AND ENGINEERING GEOLOGY" STATE ESTABLISHMENT

2024-y. "21" may 35 -son Toshkent shahri

# BUYRUQ

**O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 1-may 59-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida**

2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan asosiy vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mutasiqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son Qarori (keying o'rinlarda — Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Nazorat Reja ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, qarorga muvofiq:

- Institutning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisi o'z faoliyatida bevosita direktorga bo'ysinadi va uning oldida hisobdor bo'ladi;
- Institutning korrupsiyaga qarshi kurashishga yetakchi mutaxassis direktor tomonidan tayinlanadi hamda faoliyati muvofiqlashtiriladi;
- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassis moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining taqdimnomalari uning faoliyat olib borayotgan Institut tomonidan ko'rib chiqilishi majburiy hisoblanadi;
- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassis ilk marta lavozimga tayinlangan taqdirda, vazirlik markaziy apparatidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limida ikki haftalik stajirovkadan o'tadi.

4. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi Qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan minimal mezonlarga muvofiqlashtirsin va vazirlikning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limiga Institutning Nazorat Reja nusxasi kiritilishi ta'minlansin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari F.A. Oxunov zimmasiga yuklatilsin.

***Asos:*** *O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 1-maydagi 59-son buyrug'i.*

**Direktor** **G.A. Bimurzayev**

**Kiritildi:**
Korrupsiyaga qarshi ichki nazorati bo‘yicha yetakchi mutaxassisi — S.Maxsuddinov

**Kelishildi:**
Ilmiy ishlar va inovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari — F.Oxunov

Ilmiy kotib — Sh.Toshev

Bosh hisobchi — O.Mamatov

Iqtisodiyot va moliyalashtirish bo‘lim boshlig‘i — M.Xakkulov

Inson resurslarini boshqarish bo‘limi boshlig‘i — G.Nurlibayeva

*"GIDROINGEO instituti" DM*
*2025-yil "21" maydagi*
*-son buyrug'iga*
*1 Ilova*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-son Qarorida "GIDROINGEO instituti" DMga belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha**

# NAZORAT REJA

| T/r | Qaror bandi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Ma'sul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | "GIDROINGEO instituti" DM korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilansin:<br>a) korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;<br>b) davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;<br>v) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va yakunlari boyicha aniqlangan korrupsiyaviy nonnalarni bekor qilish bo'yicha taklif kiritish; | "GIDROINGEO instituti" DM korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilansin:<br><br>Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;<br>Davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, korrupsiyaning oldini olish bo'yicha 2025-yilda "GIDROINGEO instituti" DM korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Dastur va Xavf-xatar xaritasi chora-tadbirlar o'tkazish;<br>Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va yakunlari bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bekor qilish bo'yicha taklif kiritish; | 2025-yil iyul | Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Maxsuddinov) |

| T/r | Qaror bandi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Ma'sul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | g) davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, davlat xaridlari bo'yicha preventiv o'rganishlarni amalga oshirish;<br>d) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Kon-geologiya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga elektron hisobot taqdim etib borish;<br>e) tegishli soha va tarmoqda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro'yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlash;<br>j) davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar kiritish;<br>z) mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;<br>i) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish. | Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, preventiv o'rganishlarni amalga oshirish;<br>korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Kon-geologiya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga elektron hisobot taqdim etib borish;<br>Tegishli soha va tarmoqda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro'yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazishini davom etish;<br>"GIDROINGEO instituti" DM korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi tadbirlarni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar kiritish;<br>"GIDROINGEO instituti" DM mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishni davom etish;<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish. | | |
| 2. | Davlat organlari va tashkilotlari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining masul xodimlari quyidagi tartibda ikki haftalik stajirovkadan o'tishi belgilansin: | Tog'- kon sanoati va geologiya vazirligining markaziy apparatidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarida "GIDROINGEO instituti" DM Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisi ikki haftalik stajirovkadan o'tishi ta'minlansin. | Reja asosida | Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Maxsuddinov) |

| T/r | Qaror bandi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Ma'sul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | hududiy bo'linma va tarkibiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimlari — davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparatidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarida. | | | |
| 3. | 9. Davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda ularning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari rahbarlari va xodimlari uchun har yili korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini hamda ularning qonunchilikda belgilangan tartibda har uch yilda attestatsiyadan o'tkazilishini tashkil etib borsin. | "GIDROINGEO instituti" DM Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisi — Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida har uch yilda attestatsiya o'tkazgan tadbirda qatnashish. | Har uch yilda | Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisi (S.Maxsuddinov) |

***Asos:*** *Nazorat Reja O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya Vazirining 2025-yil 01-may 59-son buyrug'iga asosan ishlab chiqilgan.*

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha yetakchi mutaxassisi** **S.Maxsuddinov**